

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
NEMIS FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**FONETIKA VA FONOLOGIYA FANLARINING TARG‘IBOTCHISI,
FILOLOGIYA FANLARI NOMZODI, PROFESSOR
ZIYOVUDDIN TOSHOV
tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlangan**

**“HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA
FONETIKA VA FONOLOGIYANING
DOLZARB MUAMMOLARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman

20-oktyabr 2023-yil

Hozirgi globallashuv davrida fonetika va fonologiyaning dolzarb muammolari [Матн] D.H.Karimova - Buxoro: "Sadriiddin Salim Buxoriy" Durдона, 2023. - 328 b.

Mazkur to'plamda Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi Toshov Ziyovuddin Badriiddinovichning 80 yillik hayoti va 57 yillik ilmiy faoliyati hamda 100 dan ortiq mamlakatimiz va xorijiy filolog-olimlari, olimning hamkasblari, shogirdlari, do'stlari va qarindoshlari tomonidan bildirgan fikr-mulohazalari va dil izhorlari bayon qilingan.

To'plam pedagogik va ilm-fan xodimlari, yosh ilmiy izlanuvchilar va boshqa kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Professor S.S.Saidov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

f.f.f.d. (PhD) D.H. Karimova

f.f.f.d. (PhD) M.M. Maxmudova

Taqrizchilar:

f.f.d. (DSC), dotsent Z.I.Rasulov

f.f.d. (DSc), professor D.H.Quvvatova

f.f.f.d. (PhD), dotsent Y.B. Ro'ziyev

(ёрим) ва кесим (кетди)нинг ўрни алмашиши), ҳам ажратилган бўлакнинг юзага келиши (кўнгли қора ё – ёрим – кўнгли қора) ходисаси рўй берган. Бунда гўё “ёрим – кўнгли қора” ифодаси ҳам ўзига хос предикатлик, яъни эга ва кесим муносабатини ҳосил қилувчи яхлит синтактик бирликка ўхшайди. Аммо унинг кесим эмас, ажратилган сифатловчи аниқловчи эканлигини англаш лозим. Чунки “кўнгли қора” ибораси инсонга хос ёмон феъллилик белгиси ҳисобланади. Шу маънода агар у қўшиқда “ёмон” сўзи билан алмаштирилса, манзара ойдинлашиб, мазкур мисра мазмуни “ёмон ёрим кетди” маъносида одатий тартибдаги шаклга тушиб қолади. Қўшиқда бу ажратилган изоҳ бўлак ёрдамида фикрни образли ифодалашга эришилмоқда.

FOLKLORSHUNOSLIKNING JANRIY TARKIBI VA TIZIMI XUSUSIDA

Adizova Obodon Istamovna

Buxoro davlat universiteti, Fransuz filologiyasi kafedrası
professori, f.f.f.d. (PhD)

Tayanch soʻzlar: *folklorshunos, xalq ogʻzaki ijodi, xarakter, urf-odat, tarixiy, etnografiya, milliylik, bolalar oʻyini, qoʻshiq, qishloq maydonlari, xiyobonlar*

Ключевые слова: *художественный фольклорист, фольклор, биографический метод, персонаж, традиция, исторический, этнография, патриот, ревнитель науки*

Key words: *folklorist, folklore, character, tradition, historical, personaj, ethnography, patriot, scientist*

Annotatsiya: *Maqolada folklorshunoslik janriy tarkibi va tizimi yoritilgan. Folklor janrining kelib chiqishi, turlari, evolyutsiyasi, xususiyati va tuzilishiga oid maʼlumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada xalq ogʻzaki ijodi, folklorshunoslik janrining tez surʼatlar bilan taraqqiy topib borayotganligi haqida maʼlumotlar keltirilgan. Folklorga xos anʼana, urf-odat, qadriyat va milliylik tushunchalari oʻrganilgan hamda ularga nisbatan munosabat ham eʼtiborga olingan.*

Аннотация: *В данной статье освящено жанр фольклора, его история и принципы развития. В ее основу положены сведения о происхождении, эволюции, особенностях структуре фольклорного жанра.*

Annotation: *The article describes the genre of folklore, its history and principles of development. It is based on the information about the origin, evolution, characteristics and structure of the folklore genre.*

Tur tushunchasi keng maʼnoga ega boʻlib, turli janrlarni qamrab oladi. Turlar voqelikni tasvirlash usullari sifatida bir-biridan farq qiladi. Epos voqelikni obyektiv holda syujetli-hikoyaviy yoʻsinda ifodalasa, lirika subʼyektiv holda insonning voqelikdan olgan taassurotlarini, ichki hayajonlarini lirik ”men” tuygʻulari tarzida tasvirlaydi. Drama esa, personajlar nutqi va harakati orqali hayot manzaralarini chizadi, koʻrsatadi.

Turlarning har biri yana qator xillarga ega. V.Belinskiy ularni «turning butoqchalari» sifatida taʼriflaydi, bu hozir adabiyotshunoslikda, jumladan, folklorshunoslikda ham «janr» atamasi bilan yuritilmoqda. Ayrim hollarda adabiy tur va janrlarni farqlamay (nasrni ham tur, ham janr yoki lirikani ham tur va janr tarzida) qoʻllanilayapti. Holbuki, tur deyilganda voqelikni ifodalash yoʻli, usuli (epik, lirik, dramatik), janr deyilganda voqelikni badiiy ifoda etish shakllari (ertak, qoʻshiq, maqol) tushuniladi. Ammo har bir janr ham ichki xilma-xillikka ega, bu unda ifodalanuvchi mavzu mohiyatidan kelib chiqadi. Qadimgi grek faylasufi Aristotel (eramizdan oldingi 384-322 -yillar), nemis faylasufi Gegel (1770-1831-y.) va ulugʻ rus adabiyotshunosi V.G.Belinskiy (1811-1848 -yillar) kabi mutafakkirlar badiiy ijodning uch turi - epos, lirika va drama mavjudligini eʼtirof etganlar. Adabiy turlarning bu tasnifi Aristotel «Poetika»sidan boshlangan boʻlib, ilmiy taomilda hozirgacha qoʻllanib kelinmoqda.

Sinchiklab qaralsa, folklor janrlari bu uch turga sig'mayotgandek tuyuladi va bu folklorning yozma adabiyotdan farq qiluvchi xususiyati hamdir. Gap shundaki, folklor janrlarining ayrimlari har xil marosimlar va mehnat turlari bilan uzviy aloqador bo'lsa, boshqalari kuylashga va o'ynab ijro etishga mo'ljallangan. Bu, o'z navbatida, janrlarga ularning ijro xususiyatlari va vazifalari nuqtai nazaridan ham yondashmoqni taqozo etadi. Shu jihatdan ularni ikki yirik guruhga bo'lish mumkin: **a) marosim folklori janrlari:**

b) marosimga aloqasi bo'lmagan folklor janrlari.

Shuningdek, folklor asarlarining kimga mo'ljallanganligini hisobga olib ham ularni **yana ikki guruhga-kattalar va bolalar folkloriga** ajratish mumkin. Ammo bolalar folklori janrlarining (alla, erkalama, ovutmachiq, qiziqmashiq, qaytarmachiq, yalinchoq, hukmlagich, qiqillama, tegishmashiq, masxaralama, choralama, cheklashmashiq, sanama, tarqalmachiq, tez aytish, chandish, guldur-gup va boshqalar) tuzilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, hayotni tasvirlash shakli va qamrovi vazifasiga qarab uch adabiy turdan biriga kiritish mumkin. Binobarin, badiiy adabiyotning uch turga bo'linishini muayyan istisnolar bilan folklorga nisbatan ham qo'llasa bo'ladi.

1. **epik** (asotir, mif, afsona, rivoyat, nakl, latifa, ertak, terma, doston va tarixiy qo'shiq),

2. **lirik** (marosim folklorining deyarli barcha janrlari, bolalar folklorining barcha janrlari, qo'shiqning hamma ichki xillari, ashula va boshqalar)

3. **dramatik** (og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya, lof va boshqalar) turlar va ularga mansub janrlardan tarkib topgan yaxlit tizimdir.

Istisno esa, ayrim janrlarga taalluqlidir. Chunonchi, folklorshunoslikda «kichik janrlar» tarzida qaralib kelinayotgan maqol, topishmoq, irim va «yumuq» iboralar aslida paremik turga mansub hisoblansa-da, B.Sarimsoqov ularni «maxsus tur» tarzida ajratadi, hatto qarg'ish, so'kish va olqish janrlarini ham shu doirada qarashni taklif etadi.[1;83]

O'z-o'zidan ayonki, qarg'ish, so'kish (haqoratlash) va olqish janrlarida so'z magiyasi unsuri g'oyat kuchlidir, qolaversa, qarg'ish va so'kishning marosim tarkibidagi ijrosi tamoman so'ngan esa-da, olqish janrlarining turli marosimlarga aloqador holatdagi ijrosi qisman saqlangan. Binobarin, qarg'ish, so'kish va olqish janrlari so'z magiyasiga aloqador hodisa sifatida qaralmog'i folklor janriy tasnifotida muayyan aniqlikka erishuv imkoniyatini tug'diradi.

Folklorshunos V.E.Gusev esa maqol va topishmoq janrlarini epik tur tarkibida o'rganishni zarur hisoblaydi. Agar birgina folklor janrlarida ikki, hatto uch turga xos alomatlar uchrashi nazarda tutilsa, maqollar va topishmoqlarning goh nasriy, goh she'riy shakldaligiga yohud mazmuniga qarab u yoki bu adabiy turga nisbat berish oson, albatta. Ammo ularning ham shaklan, ham mazmunan, ham hajman o'ziga xos so'z san`ati namunasi ekanligini va janrdagi asosiy uzv badiiy matn ekanligi hisobga olinsa, ularni alohida **paremik** tur tarkibida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tabular ham xalq turmushida uzoq asrlar davomida sinalgan axloqiy-ma`naviy nizom mohiyatini kasb etgan paremik hodisadir. Binobarin, tabularni ham paremik turga mansub alohida va mustaqil janr sifatida qarash joizdir.

Folklorshunoslikda gohi-gohida turlararo yoki janrlararo chatishmalar hosilasi tarzida liro-epik qo'shiq yoki ertak, afsona singari hodisalar tilga olinsa-da, aslida bu hodisa folklor uchun umumiy emas. Shu sababli ularni folklor janrlari tasnifi doirasiga kiritib bo'lmaydi. Chunki bunday qo'shilma yoki oraliq janrlar hech qachon qat'iy turg'unlikka ega emas va folklordagi tarixiy taraqqiyot jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Turlar va janrlar taraqqiyotini turlar va janrlarning oraliq namunalarini Yoki qo'shilmalarini emas, balki yangi badiiy shakllarning yuzaga kelishi va eskilarining so'nishi belgilaydi.

Folklor janrlarining yuzaga kelishi, shakllanishi va taraqqiyotidagi muhim omillardan biri ijtimoiy ehtiyoj zaruriyatidir. Chunki voqelikning o'zi xilma-xil obrazlarga boy bo'lib, xalq ijodiyoti oldiga uni g'oyaviy - tarbiyaviy hamda estetik mohiyatini idrok etgan holda qay bir shaklda ifodalashni zaruriyatga aylantiradi. Aytaylik, uzoq ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashi afsonalar yoki qahramonlik dostonlarini yuzaga keltirgan bo'lsa, tabiat kuchlari oldidagi ojizliklari so'z magiyasiga sig'inish asosidagi janrlarning bunyodga kelishini ta`minlagan. Demak, voqelik tabiati ifoda shaklini yuzaga keltirishga xizmat qilgan, bundan kelib chiqadigan xulosa

shuki, ijtimoiy hayot (voqelik)dagi turli-tuman, yanayam aniqrog'i, tasvirlanishi ko'zlangan voqelikdagi xilma-xillik janrlar rang-barangligini ta'min etadi.

Xalq badiiy tafakkurining taraqqiyot darajasi ham u yoki bu janrning yuzaga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, inson o'z ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichida murakkab shakllarni bunyodga keltirishga qodir emas edi, shu sababli dastavval oddiy va kichik shakllar yuzaga kelgan, keyin esa ularning takomillashuvi zamirida katta va murakkab janrlar paydo bo'lgan. Shu tariqa janrlarning qaror topishi qonuniy hol bo'lib, bu jarayon ham ijtimoiy tarixiy omillar, ham folklorning ichki taraqqiyot qonunlariga muvofiq kechadi. Folklorda janr hodisasi yozma adabiyotdagi janr hodisasi aynan teng emas. Ular farqli xususiyatlarga ega. Masalan, yozma adabiyotda janr hodisasi ikki jihatga ko'ra: a) o'ziga xos hayotiy qamrovga egaligi va b) yaxlit badiiy tizimda namoyon bo'lishi bilangina belgilanadi. Folklorda esa, janr hodisasi, V.Ya.Propp qayd etganidek, to'rt belgisiga: a) yaxlit adabiy tizim tarzida namoyon bo'lishi; b) maishiy mohiyatga yo'nalganligi yoxud maxsus vazifadorligi; v) o'ziga xos ijro shakliga egaligi va nihoyat g) musiqa bilan uzviy aloqadorligiga qarab belgilanadi.[2;79]

Yozma adabiyot janrlarida maishiy yo'nalganlik va ijro o'rni bo'lmaydi. Aytaylik, qissa yo romanni to'yda o'qib bo'lmaganidek, azada hikoya o'qish ham ajablanarlidir, biroq to'yni yor-yorsiz, azani esa yig'i va yo'qlovsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Fransuz folklorida mavjud barcha janrlarning majmui tarixan vujudga kelgan yagona badiiy tizim (sistema) bo'lib xilma-xil tipdagi asarlarning murakkab va o'zigagina xos aloqalari hamda o'zaro ta'siri zamirida bunyod topgan. Janrlar tizimining shakllanishi va mavjudligi folklor taraqqiyotining eng muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Adizova O. I. The exceptional in the works of Van Gennep. Special issue ijssir april 2023 issn 2277-3630 (online), published by international journal of social sciences & interdisciplinary research., comparative study of literature, comparative linguistics, translation studies ,2023y,121-126b
2. Adizova O.I. Folklorshunoslikka bir nazar. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to'plamini 30-aprel 2023-yil127-131b
3. Adizova O. I. Les contes biographiques et esthétiques. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2023 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938
4. Adizova O. I. Medieval Tales and Fairy Tales in the 17th Century. Journal of SurveyinFisheriesSciences10(2S)1689-1697,2023
<https://sifisherinessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/937>
5. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -T.: "Musiqqa" nashriyoti, 2010.
6. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining janr sostavi // O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik.1-tom. T.: «Fan», 1988, 82-83-b.
7. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. -T.: "Fan", 2009.
8. Arnold Van Gennep, Le folklore, croyances et coutumes populaires francaises (1924) Б-16.
9. Gusev V.E. Estetika folklori. L.: «Nauka», 1987, s.167.

L'ÉTUDE SYSTÉMATIQUE DES MOEURS ET DES COUTUMES

Adizova Obodon Istamovna

Buxoro davlat universiteti Fransuz filologiyasi kafedrasida dotsenti, PhD

Tayanch so'zlar: *folklorshunos, xalq og'zaki ijodi, xarakter, urf-odat, tarixiy, etnografiya*

Ключевые слова: *художественный, фольклор, персонаж, традиция, исторический, этнография*

Key words: *folklorist, folklore, personaj, character, tradition, historical, ethnography*

Аннотация: *Maqolada xalq og'zaki ijodida qadriyat va urf-odatlarni tizimli o'rganish va uning taraqqiyoti haqida ma'lumotlar keltirilgan. Folklorga xos an'ana, urf-odat, qadriyat va milliylik tushunchalari o'rganilgan hamda ularga nisbatan munosabat ham e'tiborga olingan.*

Аннотация: *В данной статье Приводятся сведения о систематическом изучении ценностей и обычаев в фольклоре и его развитии. Изучались характерные для фольклора понятия традиции, обычаи, ценности и национальности, а также учитывалось отношение к ним.*

Annotation: *The article Provides information about the systematic study of values and customs in folklore and its development. The concepts of tradition, customs, values and nationality characteristic of folklore were studied, and attitudes towards them were also taken into account.*

L'étude systématique des moeurs et des coutumes, commune par des deux départements constitués par l'ancienne Savoie, étude commencée il y a plus de trente ans et qui n'est pas terminée encore, l'a fait discerner l'existence de zones de répartition dont ni les origines, ni les causes ne sont précisément intelligibles. Des zones de ce genre ont été découvertes pour une quinzaine déjà de faits folkloriques elles sont indépendantes des conditions naturelles orthographiques et hydrographiques, montagne ou plaine, économiques agri-culture, inalpage, industries forestières, laitières, etc., ethniques populations préhistoriques ou historiques énumérées lors de la conquête romaine, ou culturelles civilisations néolithique, gallo-celto-ligure, romaine, burgonde, italienne ou française enfin des divisions diocésaines et de la répartition des patronages et chapelles de saints.

Les folkloristes français et étrangers qui ont lu les mémoires est d'appliquer la méthode complètement non seulement au point de vue géographique mais aussi au point de vue du contenu et des facteurs du folklore. Or la découverte de zones, à la-quelle attendais nullement, n'est pas en soi quelque chose de surprenant. Il y a des zones linguistiques et même avec une méthode aussi imparfaite, Edmont et Gilliéron en ont discerné pour un grand nombre de mots ; pourtant leur atlas linguistique est fondé sur la méthode que j'ai nommée «méthode des sondages », mes deux départements ne sont, par exemple, représentés que par 15 pour 100 environ des communes. Mais pour la France entière, la répartition en zones est pourtant visible. De même on voit des zones linguistiques se manifester sur les cartes du Glossaire des Patois de la Suisse romande et sur les cartes de Jaberg et Judd. Ce qui est vrai pour des mots isolés pouvait être vrai aussi pour des faits folkloriques isolés, comme les feux de la Saint-Jean. En appliquant la méthode aux cérémonies de Mai M. Aubert a lui aussi constaté que le canton de Genève, qui folkloriquement fait un avec la Savoie, se divise en zones très nettes. Mais en est-il de même dans le reste de la France .

Dans certaines régions se fait dans plusieurs localités. Autrefois la coutume était générale, mais de nos jours elle est disparue presque partout dans la ville mais dans les campagnes. Ces formules sont désespérantes. A moins de parcourir en personne toute la France en auto et de contrôler partout ce qui a été imprimé depuis bientôt une centaine d'années sur nos moeurs et coutumes, on en est réduit à placer des points d'interrogation à côté de chaque paragraphe ou presque. Très rares ont été les observateurs qui ont nettement distingué les régions ou pays, plus rares encore ceux qui ont donné la liste des communes ou même des hameaux.

De nos jours les feux de la Saint-Jean ont disparu dans quelques localités ne change rien au raisonnement ; on remarquera d'ailleurs que dans les Bouches-du-Rhône le feu était officialisé et sanctifié par la présence des autorités civiles et ecclésiastiques, tout comme en Dauphiné. Deux faits sont ici à retenir : 1 il n'est dit nulle part qu'on brûlait Caramantran ; on le lapidait et on le noyait ; 2 le seul cas de brandons est signalé à Arles, qui est une ville et où par suite la coutume a pu être importée de loin en tout cas ces brandons n'ont rien à voir avec ceux de la Franche-Comté, de la Champagne, etc. Enfin nulle part il n'était fait de feux de joie soit au Mardi Gras soit au premier dimanche de Carême. Ainsi pour le cycle de Carême-Carnaval, le département constitue, en ce qui concerne les feux une zone tout aussi négative qu'elle est positive pour les feux de la Saint-Jean. On ne trouve pas plus d'explication ici que pour des constatations du même ordre en Savoie. De nos jours, il se peut que par endroits, dans les Bouches-du-Rhône, on brûle Carnaval,

III BO'LIM. ILMIY ANJUMAN MATERIALLARI.....	74
I sho'ba. Zamonaviy fonetika va fonologiyaning dolzarb masalalari	74
Хуррам Рахимов. Фикрлашга ўргатайлик.....	74
Saydaliyev Saidumar. Fonetika darsida xatolar ustida ishlash.....	76
Alimova M.X., Мамадалиев А.М. ЧЕТ ТИЛ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР АҲАМИЯТИ.....	79
Ismailov Yusuf. FONOLOGIK KOMPETENSIYA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	84
Тошов Зиявуддин Бадриддинович. ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	86
Шухратхон Имяминова. ТОВУШ ИЛМИНИНГ ДАРҒАСИ	89
Тошов З.Б., Ҳайдаров А.А. О ФЕНОМЕНЕ ПАУЗЫ В СПОНТАННОЙ МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ.....	91
Расулов Зубайдулло Изомович, Саидов Хайрулло Шавкатович. ПРИНЦИПЫ ЭКОНОМИИ ФОНАЦИОННОЙ ЭНЕРГИИ.....	96
Babayev Maxmud Tashpulatovich. TALAFFUZ LUG'ATLARI YARATISHDA XALQARO FONETIK ALIFBO (IPA)DAN FOYDALANISH MUAMMOLARI.....	98
Mahmudov Alisher Yo'ldoshevich, Homidova Nafisa Ramazon qizi. NEMIS TILI PROSODIKASIDA SUPERSEGMENTAL MASALALAR TAHLILI.....	101
II sho'ba. Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslikning dolzarb muammolari	103
M.Begmatov. ILOVA KONSTRUKSIYA SINTAKTIK ALOQANING USLUBIY VOSITASI SIFATIDA.....	103
З.Жуманиёзов. НЕМИСЧА-ЎЗБЕКЧА ЛУҒАТЛАРДА СОҒ ДИПЛОМАТИК ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕРИЛИШИ.....	105
Жўраева Малоҳат Муҳаммадовна. КОГНИТИВ ТИЛШУНОСЛИКДА «КОНЦЕПТ», «ФРЕЙМ» ВА «ГЕШТАЛЬТ» ТУШУНЧАЛАРИ ТЎҒРИСИДА МУЛОҲАЗАЛАР.....	107
Найимов Сади Нарзиевич. НОМШУНОСЛИК СОҲАСИНИНГ ТЕКШИРИШ ОБЪЕКТИ	111
I.Mamasoliyev. MATNNI HOSIL QILUVCHI BIRLIKLAR TARKIBIDAGI ILOVALI ELEMENTLAR	114
Ro'ziev Y.B. VILHELM FON HUMBOLT TA'LIMOTIDA RUHIY QUVVAT BILAN TILNING O'ZARO MUNOSABATI MASALASI.....	116
Xamidova M.H. KALENDAR QANDAY PAYDO BO'LGAN?	119
Sh. Imyaminova. NEMIS TILIDAGI MATNLARDA FRAZELOGIZMLARNING STILISTIK FUNKSIYASI.....	122
Y.B. Ro'ziyev, Z.S.Qosimova. O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHIGA OID.....	125
D.H. Karimova. DAS WESEN UND DIE BESONDERHEITEN DER KONZEPTE DER VARIABILITÄT UND INVARIANZ IN DER ÜBERSETZUNG.....	127
Y.B. Ruziev, Sh. Halimova. DIE SEMANTISCHE FUNKTION DES VOLLVERBS IM USBEKISCHEN	130
Жўраева Мақсуда Муҳаммадовна. ЁЗМА МАТБУОТ ЖУРНАЛИСТЛАРИ ҲАҚИДА.....	132
G. M. Abishova. NEMIS TILIDAGI DATIV BILAN AKKUZATIV KELISHIGINING QORAQALPOQ TILIDA BERILISHI	135
Д.У. Бердимуратов. Семантико-стилистический анализ концептуально маркированной фразеогруппы (на материале толкового словаря немецкого языка).....	136
Xamidova Muborak Hafizovna. TAQVIM: O'TMISH VA HOZIR	138
Каримова Дилафрўз Ҳалимовна, Нарзиева Дилфуза. АКА-УКА ГРИММ ЭРТАКЛАРИНИНГ ЯРАТИЛИШ ТАРИХИ ВА ЎЗБЕКЧА ТАРЖИМАЛАРИ ХУСУСИДА	139
M.T. Babayev, M.M. Atadjanova. "LUG'AT – TARJIMONNING ASOSIY QUROLI"	142
A.P.Rahmatov. EINIGE GRUNDLEGENDE MERKMALE DER TEMPUSKATEGORIE IM USBEKISCHEN	144
Марупова Гульноз Умарджоновна. ТИПОЛОГИЯ И КЛАССИФИКАЦИЯ ТУРИЗМА.....	147
M.N. Boltayeva. GEOGRAFIK HAQIQATLAR	149
M.F. Furqatova. JADIDCHILIK HARAKATI VA MILLIY TIL RIVOJI MUAMMOLARI	151
G. S. Azamatova. O'zbek va nemis tillari otlarning grammatik kategoriyalari	153

R.Sh. Bozorova, S. Zikirov. YOYANN VOLFGANG GYOTE ASARLARIDA GIDROPOETONIMLAR O'RNI.....	155
S.T.Matmurotova, R.Q.Axmedova. FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TURG'UN IBORALARNING O'XSHASH VA FARQ QILADIGAN TOMONLARI.....	158
N.M. Nazarova. "KONSEPT" TUSHUNCHASIDA LINGVISTIK MA'LUMOTLAR.....	159
F. S. Nasimova. TERMIN VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	161
K.H. Saitova. THE ROLE OF TRANSLATION MISTAKE IN TEACHING INTERPRETATION.....	163
M.C. Мирханова. АНГЛИЙСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ..	165
E.B. Jumayev, G.X. Nurullayeva. NEMIS TILIDA SHAXS IFODASI.....	166
N.T. Tabisxanov. Die Adjektive im Werk „Kabale und Liebe“ von F.Schiller.....	168
Xaitova Gulshan Bahadirovna, Kamolova Sitora. O'ZLASHTIRMA GAP VA UNING O'ZGA GAP DOIRASIDA TUTGAN O'RNI.....	170
Г.К. Хожаметова. Построение предложения в английском языке.....	173
Г.К. Хожаметова. Методико-лингвистические принципы анализа фразеологической деривации в английском языке.....	175
M.A. Кучиев. ИЛОВАЛИ ЭЛЕМЕНТЛАР СИФАТИДА ҚЎЛЛАНГАН ФРАЗЕОЛОГИЗМ ВА БАДИИЙ ТАСВИР ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС СТИЛИСТИК ВАЗИФАЛАРИ.....	177
Badalov Feruz Nuriddinovich. NEMIS TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING ONLAYN AXBOROT NASHRLARIDAGI TUTGAN O'RNI.....	178
Xolova Shahnoza Davronovna. FRAZEMA VA UNING TADQIQ ETILISH TARIXI.....	180

3-sho'ba. Zamonaviy tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik: an'ana va innovatsiyalar.....182

Зоҳиджон Садиков. АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИ ОЛМОН ТИЛИДА.....	182
Д.З.Ражабов. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА ПОЭТИК НУТҚ ИФОДАСИ.....	185
Adizova Obodon Istamovna. FOLKLORSHUNOSLIKNING JANRIY TARKIBI VA TIZIMI XUSUSIDA.....	188
Adizova Obodon Istamovna. L'ÉTUDE SYSTÉMATIQUE DES MOEURS ET DES COUTUMES ...	190
Karimova Dilafro'z Halimovna, Axmadova Xusnora Narzillo qizi. AKA-UKA GRIMM ERTAKLARINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEKCHA TARJIMALARI XUSUSIDA.....	194
Maxmudova Muattar Maxsatilloevna, Xayitova Mavjuda. Y.V.GYOTE "G'ARBU SHARQ" DEVONINING MAQSUD SHAYXZODA VA S.S.BUXORIY TARJIMALARIDAGI FARQLAR VA MUSHTARAKLIK.....	196
Hayitova Mavjuda. S.S.BUXORIY IJODIDA SHARQU G'ARB MAVZUSI VA "MAG'RIBU MASHRIQ" DEVONI TARJIMASI HAQIDA.....	199
Babayev Otabek. ÜBERSETZUNGEN UND AUSGABEN VON JALOLIDDIN RUMIS WERKEN .	202
Babayev Otabek Abdikarimovich, Zokirov Jamshid Kholmat Ugli. The history of interpreting.....	204
Jumayev Akmal Axmatovich. QALDIRG'OCH OBRAZI O'ZBEK VA NEMIS XALQ ERTAK VA AFSONALARIDA.....	207
Jabbarova Maloxat Xamdamovna. ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ПИСАТЕЛЯ НА ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА.....	209
Babayev Otabek, Masterstudentin Anna Angelika Janning, Masterstudentin Anne Charlotte Blasel. FUNKTIONEN UND ROLLE DER LITERARISCHEN ÜBERSETZUNG IM 21. JAHRHUNDERT	212
Xudoyev Samandar Samatovich. O'ZBEK LATIFALARINING TARJIMA EVOLYUTSIYASI.....	218
Bozorova Muxabbat Abduraxmonovna. HAYNRIX HAYNE SHE'RLARI O'ZBEKCHA TARJIMASIDA SHARQONA OBRAZ VA MOTIVLAR IFODASI.....	220
Бозорова Мухаббат Абдурахмановна. ВЫРАЖЕНИЕ ВОСТОЧНЫХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ СТИХОТВОРЕНИЙ ГЕНРИХА ХЕЙНА.....	222
Tolibjanov Bahromjon Maxmudxanovich. MARK TVEN YUMORISTIK ASARLARI TARJIMASIDA MUHOJAT SHAKLLARINING BERILISHI.....	224
Jumayeva Shahlo Shokirovna. MILLIY KOLORIT TERMINI, UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA UNING QAMROV DOIRASI.....	225
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Bafoev Mirfayz Baxshilloevich. MADANIYATLARARO MULOQOTDA TARJIMANING O'RNI.....	227
Babayev Maxmud Tashpulatovich, Ashirova Rayhon Anvar qizi. ERTAKLAR VA BADIY ASARLARNI TARJIMA QILISH MAHORATI.....	229
Xurshida Hasanova. Fantaziya janridagi asarlarining ilmiy va nazariy qirralari.....	231
Xamdamov Oybek Abdulxayevich. "O'TKAN KUNLAR" ROMANI TARJIMALARI TADQIQI.....	233